

# XORAZM VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## XORAZM VILOYATINING CHAKANA TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyul)

Viloyat bo`yicha joriy yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 3569,8 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 13,5% ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 855,0 mlrd. so`mni (o'sish sur`ati 55,3%), kichik tadbirdorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 2390,9 mlrd. so`mni (o'sish sur`ati 5,2%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 323,9 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 0,6% ga oshgan) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana tovar aylanmasi hajmi hamda o'sish sur'atlari

	Jami (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
--	----------------------	---	----------------------------------	---

<b>Xorazm viloyati</b>	<b>3569,8</b>	<b>113,5</b>	<b>855,0</b>	<b>155,3</b>
------------------------	---------------	--------------	--------------	--------------

#### *shaharlar:*

<b>Urganch</b>	1380,9	121,5	702,0	146,7
----------------	--------	-------	-------	-------

#### *Xiva*

<b>Xiva</b>	123,4	101,7	6,1	42,7
-------------	-------	-------	-----	------

#### *tumanlar:*

<b>Bog'ot</b>	152,0	113,5	14,3	5,6 m.
---------------	-------	-------	------	--------

#### *Gurlan*

<b>Gurlan</b>	236,5	104,6	5,1	126,3
---------------	-------	-------	-----	-------

#### *Qo'shko'pir*

<b>Qo'shko'pir</b>	137,9	102,1	2,1	32,3
--------------------	-------	-------	-----	------

#### *Urganch*

<b>Urganch</b>	335,4	111,7	39,4	2,6 m.
----------------	-------	-------	------	--------

#### *Xazorasp*

<b>Xazorasp</b>	394,3	104,8	11,0	68,1
-----------------	-------	-------	------	------

#### *Xonqa*

<b>Xonqa</b>	253,3	127,7	49,7	14,0 m.
--------------	-------	-------	------	---------


#### *Xiva*

<b>Xiva</b>	98,6	113,5	9,5	12,5 m.
-------------	------	-------	-----	---------

## XORAZM VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


<b>Shovot</b>	188,0	107,2	10,6	174,2
<b>Yangiariq</b>	192,7	106,7	4,9	192,9
<b>Yangibozor</b>	76,8	104,0	0,3	85,3

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so`m)**



2019 yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur`atlari Urganch shahri, Xonqa, Bog'ot va Xiva tumanlarida qayd etildi.


## Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 55,3% ga o'sdi va 855,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 23,9% ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirdorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 2714,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 4,7% ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 76,1% ga teng kelmoqda.

## Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



## Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Yangibozor (99,6%), Qo'shko'pir (98,5%), Gurlan (97,8%) va Yangiariq (97,5%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 23,9% ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (50,8%), Xonqa (19,6%) va Urganch (11,7%) tumanlarida kuzatilgan.

## XORAZM VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

### Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mlrd so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik tadbirkorlik (mlrd so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
--	---------------------------------	--	------------------------------------	--

Xorazm viloyati	855,0	155,3	2714,8	104,7
-----------------	-------	-------	--------	-------

*shaharlar:*

Urganch	702,0	146,7	678,9	103,2
---------	-------	-------	-------	-------

Xiva	6,1	42,7	117,3	109,5
------	-----	------	-------	-------

*tumanlar:*

Bog'ot	14,3	5,6 m.	137,6	104,8
--------	------	--------	-------	-------

Gurlan	5,1	126,3	231,4	104,2
--------	-----	-------	-------	-------

Qo'shko'pir	2,1	32,3	135,8	105,7
-------------	-----	------	-------	-------

Urganch	39,4	2,6 m.	296,1	103,8
---------	------	--------	-------	-------

Xazorasp	11,0	68,1	383,3	106,4
----------	------	------	-------	-------

Xonqa	49,7	14,0 m.	203,5	104,5
-------	------	---------	-------	-------


Xiva	9,5	12,5 m.	89,1	103,5
------	-----	---------	------	-------

Shovot	10,6	174,2	177,4	104,8
--------	------	-------	-------	-------

Yangiariq	4,9	192,9	187,9	105,5
-----------	-----	-------	-------	-------

Yangibozor	0,3	85,3	76,5	104,1
------------	-----	------	------	-------

## Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2019 yil yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 1938,8 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 11,6% ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-iyul oylarida o`tgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o`sish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkichlar Urganch shahri (9717,9 ming so`m), Urganch (1722,8 ming so`m) va Yangiariq (1690,2 ming so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Xiva (690,5 ming so`m), Qo'shko'pir (816,1 ming so`m) va Yangibozor (894,6 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quydagicha ko`rinish olgan:

## XORAZM VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	1938,9	111,6

**shaharlar:**

Urganch	9717,9	120,2
Xiva	1357,0	100,1
<b>tumanlar:</b>		
Bog'ot	941,5	111,5
Gurlan	1621,2	102,9
Qo'shko'pir	816,1	100,3
Urganch	1722,8	109,6
Xazorasp	1614,1	103,0
Xonqa	1382,4	125,6
Xiva	690,5	111,4
Shovot	1126,2	105,3
Yangiariq	1690,2	105,0
Yangibozor	894,6	102,3

Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyul oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,5% ni tashkil etib, 52,4 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 4,5% o`sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 95,8% ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyul)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1128,0 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 11,9% ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub'ektlari hajmi 2019 yil yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra 650,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,7% ga oshgan. Ushbu sektorining umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 57,7% ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Bog'ot, Yangiariq va Yangibozor tumanlarida (100,0%) yuqori bo'lган.

**Yirik va kichik korxonalarining  
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasi ulushi 42,3% ni tashkil etdi, yirik korxonalarda eng yuqori ulush Urganch tumanida (68,1%) va Urganch shahrida (37,3%) kuzatildi.

## XORAZM VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1128,0</b>	<b>111,9</b>	<b>477,7</b>	<b>119,9</b>	<b>650,3</b>	<b>106,7</b>
<b>shaharlar:</b>						
<b>Urganch</b>	394,9	109,7	147,2	116,0	247,7	106,2
<b>Xiva</b>	38,6	101,5	0,4	168,7	38,2	101,1
<b>tumanlar:</b>						
<b>Bog'ot</b>	15,2	107,4	0,003	1,7	15,2	108,9
<b>Gurlan</b>	17,6	105,5	0,02	11,9	17,6	106,4
<b>Qo'shko'pir</b>	2,7	103,7	0,01	8,0	2,7	109,9
<b>Urganch</b>	481,4	115,1	327,8	122,0	153,6	102,8
<b>Xazorasp</b>	18,9	104,9	0,01	1,3	18,9	110,2
<b>Xonqa</b>	53,4	113,0	1,6	4,5 m.	51,8	110,5
<b>Xiva</b>	22,2	113,0	0,6	2,9 m.	21,6	111,2
<b>Shovot</b>	24,7	110,8	0,1	25,7	24,6	112,1
<b>Yangiariq</b>	18,2	112,9	0,01	4,9	18,2	114,1
<b>Yangibozor</b>	40,2	114,8	0,004	2,2	40,2	115,3

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o`zgarish sur`atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur`atlari Urganch tumani (115,1%) va Yangibozor tumani (114,8%) da qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi  
bo'limi  
Tel.:62-224-65-09